

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SOFT SKILLSNI BAHOLASH MEZONLARI VA DIAGNOSTIK USULLARI.

Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti, Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 1- kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skillsni shakllantirish va ularni baholashning ilmiy asoslari yoritiladi. Bolalarning kommunikativ, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini aniqlash mezonlari ishlab chiqilib, ularni diagnostika qilishning samarali usullari bayon etiladi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv, o'yin faoliyati va interfaol metodlarning soft skills rivojlanishiga ta'siri asoslab beriladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida individual yondashuvni takomillashtirish zarurligi ko'rsatib beriladi.


Kalit so'zlar: soft skills, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy kompetensiya, emotsional rivojlanish, kommunikativ ko'nikma, diagnostika, baholash mezonlari.


Аннотация: В данной статье раскрываются научные основы формирования и оценки soft skills у детей дошкольного возраста. Представлены критерии коммуникативных, эмоциональных и социальных компетенций детей, а также описаны эффективные методы их диагностики. Особое внимание уделено роли педагогического наблюдения, игровой деятельности и интерактивных методов в развитии soft skills. Подчеркивается необходимость совершенствования индивидуального подхода в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: soft skills, дошкольное образование, социальная компетентность, эмоциональное развитие, коммуникативные навыки, диагностика, критерии оценки.

Abstract: This article outlines the scientific foundations of developing and assessing soft skills in preschool children. Key criteria for communicative, emotional, and social competencies are presented, and effective diagnostic methods are described. Special attention is given to the role of pedagogical observation, play-based activities, and interactive approaches in soft skills development. The importance of improving individualized approaches in preschool education is emphasized.

Keywords: soft skills, preschool education, social competence, emotional development, communication skills, diagnostics, assessment criteria.





Bugungi globalashuv sharoitida shaxsning muvaffaqiyati nafaqat uning bilim darajasi, balki ijtimoiy moslashuvchanligi, muloqot qilish qobiliyati va muammolarni hal etish kompetensiyalariga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida soft skillsni shakllantirish va rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yosh davri (3–7 yosh) inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda bola shaxs sifatida shakllanadi, uning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi asoslari yaratiladi. Shu sababli, aynan shu davrda soft skillsni aniqlash va baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda soft skills tushunchasi turli jihatdan izohlanadi. Masalan, emotsional intellekt nazariyasi mualliflari ushbu ko'nikmalarni shaxsning o'zini va boshqalarni anglash qobiliyati bilan bog'laydi [10]. Shu bilan birga, ijtimoiy o'rganish nazariyasi vakillari esa ularni ijtimoiy tajriba asosida shakllanuvchi kompetensiyalar sifatida talqin etadi [1]. Soft skillsni rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan: L.S. Vygotskiy bolalar rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlagan [1] bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada amalga oshadi va aynan shu jarayonda uning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi [3]. Shu bilan birga, J. Piaget nazariyasiga ko'ra, bolaning fikrlash jarayoni uning faoliyati va tajribasi asosida rivojlanadi [12].

M. Montessori bolalarning mustaqilligini rivojlantirish orqali ularning shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish zarurligini asoslagan [2]

J. Dewey ta'lim jarayonini tajribaga asoslangan faoliyat orqali tashkil etish zarurligini ilgari surgan [3]

D. Goleman emotsional intellektni shaxs muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatgan [10] Milliy pedagogikada ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishi muhim vazifa sifatida belgilangan [5]. Maktabgacha ta'limdagi bolalar odatda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu yosh davri bir necha bosqichlarga bo'linadi:


Kichik guruh (3–4 yosh)


O'rta guruh (4–5 yosh)

Katta guruh (5–6 yosh)

Maktabga tayyorlov guruhi (6–7 yosh)

Baholash mezonlari o'zi nima, baholash mexoni — bu shaxsning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini sifat va miqdor jihatdan aniqlashga xizmat qiluvchi standart ko'rsatkichlar tizimidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda baholash mezonlari ularning yoshiga mos ravishda





quyidagilarga asoslanadi: bola nima qila oladi (amalga oshirish darajasi) ,qanday bajaradi (sifat darajasi), qanday sharoitda bajaradi (mustaqillik darajasi). Masalan, “kommunikativlik” ko‘nikmasini baholash mezonlari: muloqotga kirishadi yoki yo‘q, gapni tushunadi yoki yo‘q, o‘z fikrini ifodalay oladi yoki yo‘q, boshqalarni tinglay oladi. Har bir yosh bosqichida bolalarning soft skills darajasi va ularni baholash mezonlari turlicha bo‘ladi. Masalan, 3–4 yoshdagi bolalarda asosan muloqotga kirishish boshlang‘ich darajada bo‘lsa, 6–7 yoshda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalari ancha rivojlangan bo‘ladi. Ushbu yosh davrida quyidagi asosiy soft skills shakllanadi:

kommunikativlik;

ijtimoiylashuv;

hissiy intellekt;

mustaqillik;

muammoli vaziyatlarni hal qilish;

ijodkorlik. Bu ko‘nikmalar bola shaxsining keyingi rivojlanishi uchun asos yaratadi. Soft skillsni baholashda tizimli yondashuv talab etiladi. Baholash mezonlari bolaning yosh xususiyatlari va rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi zarur [2; 10].


1. Kommunikativlik darajasi. Bolaning nutq faoliyati, muloqotga kirishuvchanligi va tinglash qobiliyati asosiy ko‘rsatkich sifatida olinadi [1; 11]. Bu mezon orqali bola o‘z fikrini ifodalash va boshqalar bilan o‘zaro aloqaga kirishish darajasi aniqlanadi [5].


2. Ijtimoiy moslashuv. Bolaning guruhga moslashuvi, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati va jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki baholanadi [13; 4]. Bu mezon ijtimoiylashuv jarayonining samaradorligini ko‘rsatadi [7].

3. Hissiy intellekt. Hissiy intellekt bolaning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi [6]. D. Goleman tadqiqotlariga ko‘ra, aynan hissiy intellekt shaxsning muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi [6; 7].

4. Mustaqillik va tashabbuskorlik. Bolaning mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko‘rsatishi va faoliyatni o‘zi tashkil eta olishi bilan aniqlanadi [9; 10].

5. Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati. Bolaning oddiy muammolarni hal qilish jarayonida qo‘llaydigan strategiyalari va fikrlash moslashuvchanligi baholanadi [12; 14].





6. Ijodkorlik darajasi. Ijodkorlik bolaning tasavvur kengligi va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati bilan belgilanadi [8; 15].

3–4 yosh bu bosqichda baholash mezonlari sodda va kuzatuvga asoslangan bo‘ladi: kattalar bilan oddiy muloqotga kirisha olish; o‘yinlarda ishtirok etish; oddiy hissiyotlarni ifodalash (xursandlik, xafa bo‘lish); ko‘rsatmaga amal qilish.

4–5 yosh bu davrda ijtimoiylashuv faolroq kechadi: tengdoshlari bilan muloqot qilish; o‘yinlarda rol bajarish; oddiy muammolarni hal qilishga urinish; o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va tushunish.

5–6 yosh baholash mezonlari murakkablashadi: jamoada ishlash; mustaqil qaror qabul qilish; muammoli vaziyatlarga yechim topish; hissiy nazoratni saqlash; boshqalarning fikrini hurmat qilish.

6–7 yosh. bu bosqichda maktabga tayyorgarlik muhim: mustaqil fikrlash va tahlil qilish; murakkab muloqot olib borish; liderlik va tashabbuskorlik; konfliktlarni hal qilish; o‘z faoliyatini rejalashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skillsni aniqlash uchun quyidagi diagnostik usullar samarali hisoblanadi:

1. Pedagogik kuzatish .Eng asosiy va tabiiy usul bo‘lib, bola o‘yin jarayonida, mashg‘ulotda va kundalik faoliyatda kuzatiladi. Har bir yosh bosqichi uchun alohida kuzatish kartalari tuziladi.

2. Suhbat va savol-javob .Bolaga oddiy savollar berish orqali uning fikrlashi, hissiy holati va muloqot darajasi aniqlanadi. Bu usul ayniqsa 5–7 yoshda samarali.


3. Rolli va syujetli o‘yinlar .Masalan: “do‘kon”, “oila”, “shifoxona” o‘yinlari orqali bola ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi baholanadi.


4. Diagnostik topshiriqlar .Maxsus vazifalar beriladi: muammoni hal qilish (masalan, o‘yinchoqni qanday bo‘lishish); mantiqiy fikrlash topshiriqlari; ijodiy vazifalar (rasm chizish, hikoya tuzish).

5. Psixologik testlar. Oddiy testlar orqali hissiy holat, ijtimoiy moslashuv va fikrlash darajasi aniqlanadi.

6. Portfolio usuli. Bolaning ishlari (rasmlar, qo‘l mehnati, loyihalar) yig‘ilib, rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi.

7. Eksperimental vaziyatlar. Maxsus tashkil etilgan muammoli holatlar orqali bolaning reaksiyasi o‘rganiladi (masalan, o‘yinchoqni bo‘lishish vaziyati).Baholash mezonlari va diagnostik usullar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, quyidagilarni ta‘minlaydi: bolalarning individual rivojlanishini aniqlash; pedagogik yondashuvni moslashtirish; muammoli jihatlarini aniqlash; rivojlantiruvchi





ishlarni rejalashtirish. Soft skillsni baholash natijalari pedagogik faoliyatni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2; 9]. Ushbu natijalar asosida:

individual ta'lim yo'nalishlari ishlab chiqiladi [10];

pedagogik metodlar optimallashtiriladi [1; 7];


ota-onalar bilan hamkorlik kuchaytiriladi [8];


bolalarning rivojlanish dinamikasi monitoring qilinadi [4; 13].

Shuningdek, baholash jarayoni uzluksiz va tizimli bo'lishi zarur, chunki bu bolaning rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi [11; 15]. Har bir yosh bosqichida diagnostika natijalari asosida individual rivojlanish yo'nalishi belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skillsni baholash tizimi ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. 3–7 yosh oralig'ida ushbu ko'nikmalar bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir bosqich uchun alohida mezonlar va diagnostik usullar qo'llaniladi. To'g'ri tashkil etilgan baholash tizimi nafaqat bolaning rivojlanish darajasini aniqlash, balki uning shaxsiy va ijtimoiy kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. [2; 10].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent, 2018.
2. Xoliqov A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2020.
3. UNICEF. Early Childhood Development. – 2019.
4. Shonazarov R. Innovatsion texnologiyalar. – 2021.
5. Qodirova F. Maktabgacha ta'lim metodikasi. – 2019.
6. Rubinstein S.L. Umumiy psixologiya. – 2002.
7. Piaget J. The Psychology of the Child. – 1969.
8. Bronfenbrenner U. Human Development Ecology. – 1979.
9. Asmolov A.G. Shaxs psixologiyasi. – 2010.
10. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – 2004.
11. To'xtayeva N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2017.
12. Rasulova M. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi. – Toshkent, 2019.





13. Jo'rayev R. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
14. Abdurahmonov Q. Ta'lim menejmenti asoslari. – Toshkent, 2020.
15. Yusupova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent, 2021.

